

SHAVKAT RAHMON IJODIDA ERK TALQINI

Ashurova Mahliyo

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti Filologiya fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shavkat Rahmon ijodida erk talqini va millat baxti uchun hurriyat tushunchasining o'rni hamda ba'zi yurtdoshlarimizdagi erksizlik, mutelik kabi illatlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Motiv, ot, tog', olov, bardosh, og'riq, umid, Vatan, xalq, kurash, ozodlik.

Dunyo adabiyotshunosligida ko'p qo'llaniladigan motivlar dam biri erk motividir. Bu mavzuda ko'plab ijodkorlar qalam tebratganlar. Shulardan biri erksevar, qaysar va biroz o'jar shoir Shavkat Rahmondur. Ijtimoiy hayotdagi erksizlik va vahshiylik, eng yomoni, ba'zi millatdoshlarining bu holatga loqayd qarab bosh egishlari adib dilini o'rtamasdan qo'yadi. Bu kechinmalar uning asarlarida ham salmoqli o'rin egallaydi. Masalan,

Otim o'lgan, qilichim singan,
Majaqlangan sovut qalqon
Kim tashladi meni bu chohga?
Qayda qoldi yorug' osmonim?!²⁶

Azaldan ma'lumki, ot turkiylarning doimiy yo'ldoshi bo'lib kelgan. Qahramon yo'lidan chiqqan sinov-u mashaqqatlardan oti bilan birgalikda mardonavor o'tib keladi. Adabiyotda ot sadoqatli do'st ramzi hamdir. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" asarida ot obrazi juda ta'sirli gavdalantirilgan. Qahramon yonidagi insonlardan qanchadan qancha jabr-sitam ko'radi, oxirida esa boshqalar tilsiz, zabonsiz deb o'ylaydigan oti Tarlondan mehr ko'radi: "Ayo Tarlon, sen mening akamsan, akam. Bo'ldi, men ularni akam demayman. Mening akam sensan, Tarlon. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g'amim bor, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim. Bo'ldi men ularni birodarim demayman. Mening birodarim sensan, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim...²⁷

Adib "Otim o'lgan...", deya nola qilishida yonida ana shu erksizlikka qarshi kurashishda sodiq yo'ldosh yo'qligidan qiynalgandir. Singan qilich, majaqlangan sovut-qalqon esa qahramonning holatini yanada ayanchliroq ekanligini ko'rsatmoqda. Buning ustiga u "choh"da, erksizlik, qabohat chohida. U "Qayda qoldi yorug' osmonim", deya ozodlikni, hurriyatni qumsaydi.

²⁶ Shavkat Rahmon "Saylanma". Toshkent. "Sharq" NMAK- 1997, 13-bet

²⁷ Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom". Toshkent. "Ziyo nashr" -2019,304-bet

Sayyora turnalar arqon solishar,
Osmon to'lar "qur-qur"lariga.
Ularga kerakmas qo'nalg'a-
Ular uchaberar uyqularida.

Bizlarda bo'lsaydi qushlar imkoni.²⁸

Ma'lumki, Alloh taolo odamzotni jamiki mavjudotlarga hukmron qilib yaratdi. Lekin lirik qahramon "Bizlarda bo'lsaydi qushlar imkoni", deya ularga cheksiz iztiroblar ichida havas qilyapdi. Nega...?! Chunki Sho'rolar davrida yurtimizda adabiy-ijtimoy hayot shu qadar bo'g'iq ediki, "men o'zbekman" deya balandroq aytish ham uning hayotiga zomin bo'lishi aniq bo'lib qolgandi. Bu vaqtda millatdoshlarimizga aqlga sig'dirolmaydigan tazyiq o'tkazildiki, til, din, inson sha'ni, qadr-qimmatini oyoqosti qilindi. Bunday vaziyatda Shavkat Rahmondek haq so'zni hayiqmay qog'ozga to'ka oladigan erksevar ijodkor bu mavzuni qalamga olmasdan bo'lmasdi, chunki baxtsiz yurtni baxtli deb kuylash haqiqiy shoirga yarashadigan ish emas. Erk yo'q millatda esa baxt tushunchasi tushda ham yetib bo'lmas xayol_ kabidir. Bunday ayanchli vaziyatda inson dilini xufton qiladigan holat xalqning g'ururi, haqiqat ko'zlarini mudroq bosgan edi. Ba'zilar shirin jonini saqlab qolish uchun o'z vatandoshini sotishdan ham toymasdi. Millatning milliy ruhini uyqu bosgan vaqtda adib hurriyat dardida hatto uxlay olmasdi.

Bir she'rida:

"Ko'zingizni oching, qo'rqmang,
Ziyoda qamashsin, og'risin, mayli,

Mayliga yashamak bo'lsin qiyinroq

Ochiqligi tufayli"²⁹, deya ana shunday yurtdoshlariga nisbatan xitob qiladi.

Xalqimizda "Egilgan boshni qilich kesmaydi", degan maqol bor. Qilgan xatosidan pushaymon bo'lib, ko'nglini og'ritgan insonidan uzr so'rab bosh egilganda bu xato kechirilishi mumkin, ya'ni aybdorning "boshi kesilmaydi". Biroq millat ozodligi, hurriyat masalasi turganda jon saqlash uchun bosh eggan yurtfurushlarga nisbatan bu maqolni qo'llab bo'lmaydi, albatta. Ijodkor bunday kimsalarga nisbatan shunday deydi:

"Yurtimni kezaman,

Endi har narsa-

Egilgan narsalar tegar boshimga,

Endi ishlash kerak bu kengliklarda.

Tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,

Tokim buyuk tog'lar saltanatida

Egilgan boshlarni

qilichlar kessin."³⁰

²⁸ Shavkat Rahmon "Adabiyot oralab". Toshkent. Movorounnahr-2012, 28-bet

²⁹ Shavkat Rahmon "Adabiyot oralab", Toshkent. Movorounnahr-2012, 21-bet

³⁰ Shavkat Rahmon "Saylanma". "Sharq" NMAK-1997, 15-bet

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda tog' mag'rurlik ramzi sifatida ham qaraladi. Adib "Buyuk tog'lar saltanatida", deytoganda yovlarga hech qachon taslim bo'lmagan jasoratli va erkparvar xalqimizda dushmanga bosh eggan kimsalarga bu yurtida joy yo'q demoqchi bo'lgan bo'lsa ajab emas. Tog' obrazi jadid bobomiz Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" ham go'zal talqin qilingan:

"Ay tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nima uchun boshingda quyuq bulut olamlar?
Uchmoxlarning kavsari eng pokiza;
Sadaflarning donasidek top-toza
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilgan,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorga osilgan?
Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga
-Oh, yig'i,
Bu nega?"³¹ (50-bet)

"Tog'lari ko'klarga salom bergan" yurtimiz boshida quyuq bulut, ko'lanka hukm surmoqda. Bu nega?!

"Uchmoxlarning kavsari eng pokiza" misrasiga ham qisqacha to'xtalib o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Uchmox arabchadan jannat degan ma'noni anglatadi. Jannatdagi Havzayi Kavsar suvi eng pokiza suvdir. Adib ayni shu misra bilan yurtimizni jannatmakon o'lka ekanligiga ishora qilyotgan bo'lsa, ajab emas. Ammo bu o'lkada go'zal o'tloqlar-u ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga yig'i... Lirik qahramon esa bu holdan azoblanadi.

Millat dardini o'z dardi deb bilgan Cho'lpon, Qodiriy, Behbudiy kabi jadid bobolarimiz va ularning maqsadini o'ziga yo'lchiroq qilib olgan adiblar ijodida bu mavzuni baralla ayta oldilar. Yo'ldosh Eshbek bir she'rida:

"Yuragim chetida to'siq bor doim
Oy unga urilar, quyosh urilar.
Sen qayda yurasan kulib muloyim
Qirrador olovga bardosh urilar:
Ooo, errkkaam!
O, errkkaam!
Tog'lar sado berar, tog'lar surilar:
Erk kam.
Erkam."³²

³¹ Abdulhamid Cho'lpon "Go'zal Turkiston", Toshkent. "Ma'naviyat"-1997,50-bet

³² Yo'ldosh Eshbek "Seni so'roqlayman" 2020

Hurriyat dardi erksevar ijodkorga hech tinchlik bermasdi va bu dardni u o'z millatdoshlariga yuqtirishga ham harakat qildi.

"Lazzat bor har qanday og'riqda,
Kechalar og'riqdan ingrab yotaman
Va o'sha og'riqni beg'am, bo'g'riqqan
Og'riqsiz yuzlarga otaman."³³

Haqsizlik haqiqiy shoirga halovat bermaydigan holatdir. Adolatparvar, millat dardini o'z dardi deb biladigan shoir shu og'riqdan ham lazzat oladi, chunki asl shoir millat baxtli bo'lsa, shodon bo'ladi, azob cheksa, azoblanadi. "Noumid-shayton", deydi dono xalqimiz. Shavkat Rahmon qancha azob chekmasin, qancha qiynalmasin, noumid bo'lmadi.

Bu qora kunlar o'tishiga, qop-qora bulutli osmonda yomg'irdan so'ng quyosh porlashiga umid qildi, chin dildan ishondi. "Bashorat" she'rida:

"Surilar bu temir pardalar,
istibdodning tog'lari qular,
mog'or bosgan qora qa'rlardan
milyon ozod ruhlilar turar.
To'sib bo'lmas qora vahiy-la,
yolg'on shior,
safsata bilan,
hur fikrni bosgan vahima,
dabdaba-yu as'asa bilan.
Qular qonda suzgan qasrlar,
judab yertar sangin saltanat,
so'qir bo'lar asriy nahsdan
bino bo'lgan yovuz shaytanat..."³⁴

Yuqorida aytib o'tilganidek, millat erki, adolat mavzusi adib ijodining salmoqli qismini tashkil etadi va bu tushunchalarni ijodkor umrining mazmuni deb biladi. Bu ulug' tushunchalarni "Qasam" she'rida shunday ta'kidlaydi:

"Shavkat Rahmon degan
Bir o'jar shoir
Bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
Sayladim so'zlarning
saralarini.
Har bir so'z
yuz so'zning o'rnini bosar-
Vatan.Xalq. Jasorat. Kurash. Ozodlik."³⁵

³³ Shavkat Rahmon "Adabiyot oralab" ,Toshkent. Movorounnahr-2012,21-bet

³⁴ Shavkat Rahmon "Saylanma" , Toshkent. "Sharq" NMAK-1997,9-bet

³⁵ Shavkat Rahmon "Saylanma", Toshkent. "Sharq" NMAK-1997,14-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Rahmon "Abadiyat oralab". T: Movarounnahr 2012-yil
2. kh-davron.uz
3. Saylanma. T: "Sharq" NMAK 1997-yil
4. Abadiyat oralab T: " Movarounnahr", 2012-yil
5. Abdulhamid Cho'lpon "Go'zal Turkiston" T: Toshkent "Ma'naviyat" 1997-yil
6. Yo'ldosh Eshbek "Seni so'roqlayman" 2020-yil.
7. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom". Qissalar. T: "Sano-standart" nashriyot, 2017.